SCIENCE HUB REVIEW
2026
Volume 1
Issue 5
www.sciencehubreview.uz
ILMIY ELEKTRON JURNAL

TARIXIY DAVRLARDA FALSAFA VA FANGA BO‘LGAN MUNOSABATNING SHAKLLANISHI HAMDA UNING ZAMONAVIY TURIZM ILMIY-TADQIQOT METODOLOGIYASIDAGI METODOLOGIK AHAMIYATI

Abdumalikov Abdulatif Abidjanovich

Farg‘ona Davlat Universiteti f.f.D (DSc) Professor

Halimjonova Mardona Umidjon qizi

Farg‘ona davlat universiteti Turizm va mehmondo‘stlik yo‘nalishi magistranti

halimjonovamardona726@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada falsafa va fanga munosabatning tarixiy shakllanishining bosqichlari antik davrdan zamonaviy ilmiy tafakkurgacha tahlil qilinadi. Empirik va ratsional bilish, induksiya va deduksiya, pozitivizm, interpretativ yondashuv hamda paradigmal pluralizmning turizm tadqiqotlariga ta’siri ochib beriladi. Maqsad — tarixiy-falsafiy qarashlarning zamonaviy turizm metodologiyasidagi ahamiyatini aniqlash. Tarixiy, qiyosiy-tahliliy va tizimli yondashuvlar hamda ilmiy adabiyotlar sintezidan foydalanildi. Natijalar turizmni iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik va makoniy jarayonlar birligi sifatida o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi. Miqdoriy o‘lchash, sifat jihatdan tushunish va tanqidiy-tizimli tahlilni birlashtiruvchi integrativ model taklif etiladi.

Kalit so‘zlar

falsafa tarixi, fan metodologiyasi, ilmiy bilish, turizm tadqiqotlari, pozitivizm, interpretativ yondashuv, fanlararo integratsiya, aralash metodlar.

Аннотация

В статье рассматривается историческое формирование отношения к философии и науке — от античности до современной научной мысли. Анализируется значение эмпирического и рационального познания, индукции и дедукции, позитивизма, интерпретативного подхода и методологического плюрализма для исследований туризма. Цель — определить влияние историко-философских представлений на методологию современного туризма. Использованы исторический, сравнительно-аналитический и системный подходы, а также синтез научной литературы. Результаты подтверждают необходимость изучать туризм как единство экономических, социальных,

культурных, экологических и пространственных процессов. Предлагается интегративная модель, объединяющая количественное измерение, качественное понимание и критико-системный анализ.
Ключевые слова
история философии, методология науки, научное познание, исследования туризма, позитивизм, интерпретативный подход, междисциплинарность, смешанные методы.
Abstract
The article traces the historical development of attitudes towards philosophy and science, from antiquity to contemporary scholarship. It examines how empirical and rational knowledge, induction and deduction, positivism, interpretivism, and methodological pluralism inform tourism research. The study aims to identify the relevance of historical and philosophical ideas to contemporary tourism methodology. It employs historical and comparative analysis, systems thinking, and a conceptual synthesis of academic literature. The findings show that tourism should be studied as an interconnected economic, social, cultural, environmental, and spatial phenomenon. An integrative model combining quantitative measurement, qualitative understanding, and critical systems analysis is proposed.
Keywords
history of philosophy, philosophy of science, scientific knowledge, tourism research, positivism, interpretivism, interdisciplinarity, mixed methods.

Kirish

Falsafa va fan o‘rtasidagi munosabat insoniyat yaralgandan bilimni anglashga va haqiqat mezonlari shuningdek, ishonchli bilimga ega bo‘lish yo‘lida yuzaga kelgan bahs va munozarali holatlar orqali shakllangan. Falsafa borliq, inson, jamiyat va bilishning eng umumiy tamoyillarini o‘zida mujassam etadi, muhokama qiladi, fan esa muayyan hodisalar haqida ishonchli dalillarga tayangan, tekshiriladigan va tartibga solinga tizimdagi bilim ko‘nikma ishlab chiqaradi. Biroq bu ikki soha bir-biridan uzilgan emas: falsafa ilmiy bilimning asoslari, chegaralari va qadriyatlarini tahlil qiladi; fan- falsafiy nazariyalarni yangi dalillar va muammoli istisnoli holatlar bilan boyitadi. Ilmiy metod jarayonini kuzatib borish natijasida tajriba, induktiv va deduktiv xulosa, gipoteza hamda nazariyalarni tekshirish jarayonlari yuzaga keladi. Lekin munozarali holat shuki, barcha fanlar uchun o‘zgarmas yagona metod mavjudligidir.[1].

Mazkur holat turizm sohasi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Turizm bir vaqtning o‘zida iqtisodiy almashinuv, makoniy harakat, madaniy tajriba, ijtimoiy munosabat, ekologik ta’sir va boshqaruv faoliyatidir. Shu sababli uni yagona metod va fan orqali anglatish va tushuntirib yoritib berish qiyin masala. Turizm yo‘nalishidagi tadqiqotlari

geografiya, iqtisodiyot, sotsiologiya, antropologiya, tarix, ekologiya, menejment va siyosatshunoslik sohasidagi bilimlarini birlashtiradi. So‘nggi tadqiqotlarda turizmning fanlararo tabiati uning nazariy rivojlanishi uchun imkoniyat yaratishi bilan birga, tushunchaviy parokandalik va metodologik nomuvofiqlik xavfini ham yuzaga chiqarishi qayd etilgan [2; 3].

Tadqiqot maqsadi — falsafa va fanga munosabatlarining tarixiy taraqqiyot bosqichlarini birma- bir tahlil qilish va ushbu taraqqiyot tahliliy natijalarini zamonaviy turizm ilmiy-tadqiqot metodologiyasidagi ahamiyatini ochib berish. Maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: ilmiy bilishning tarixiy bosqichlarini tavsiflash; asosiy falsafiy-metodologik yo‘nalishlarni qiyoslash; turizmning fanlararo xususiyatini asoslash; turizm tadqiqotlarida metodologik yondashuv va usullarni uyg‘unlashtirish tamoyillarini taklif etish.

Metodologiya

Maqola nazariy-tahliliy xarakterga ega bo‘lib, konseptual va qiyosiy tahlilga asoslandi. Falsafa va fan metodologiyasi tarixiga oid ilmiy manbalar o‘rganilib, ratsionalizm, empirizm, pozitivizm, tanqidiy ratsionalizm va paradigmal yondashuvlar turizm tadqiqotlari bilan qiyoslandi.

Manba sifatida ilmiy maqolalar, falsafa ensiklopediyasi, turizmga oid tadqiqotlar va BMT Statistika bo‘limining metodologik hujjatlaridan foydalanildi. Tarixiy, qiyosiy, tizimli tahlil hamda konseptual sintez usullari qo‘llanib, induktiv va deduktiv fikrlash uyg‘unlashtirildi.

Natijalar

Antik davr: falsafiy tafakkur va ilmiy bilishning dastlabki asoslari : Antik Yunonistonda falsafa tabiat, jamiyat va inson haqidagi bilimlarni mifologik tasavvurlardan mantiqiy izohga o‘tkazishda muhim rol o‘ynadi. Suqrot bilim va axloqiy mulohazani, Aflotun (Platon) sezgi orqali idrok etiladigan olam bilan aqliy bilish o‘rtasidagi farqni, Arastu (Aristotel) esa kuzatish, tasniflash va mantiqiy xulosa chiqarishning ahamiyatini asoslab berdi. Arastu qarashlarida empirik kuzatish umumiy tamoyillarni anglash uchun boshlang‘ich nuqta bo‘lib, induksiya va deduksiya ilmiy fikrlashning o‘zaro bog‘liq yo‘llari sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘rta asrlar: diniy-falsafiy tafakkur va bilimni tizimlashtirish: O‘rta asrlarda insoniyatning ilmiy tafakkuri diniy dunyoqarash bilan hamnafas holda murakkab munosabatda rivojlanib bordi. Sharq va G‘arb ilmiy rivojlanishda sohasida mantiq, matematika, tibbiyot, astronomiya, geografiya va tarixiy bilimlar rivojlanib, mavjud bilimlarni ta’riflash va tartibga solishga katta e’tibor qaratildi. Forobiy, Ibn Sino, Beruniy singari mutafakkirlar aqliy mushohada, mantiqiy fikrlash, kuzatish va tajriba o‘rtasidagi munosabatni mustahkamlashga hissa qo‘shdilar. Beruniyning turli xalqlar urf-odatlari va qarashlarini qiyosiy o‘rganishga intilishi bugungi madaniy antropologiya va turizm etnografiyasi uchun metodologik jihatdan muhimdir.

Uyg‘onish va Yangi davr: tajriba, matematika va metodik shubha: Uyg‘onish davrida inson, tabiat va tajribaga bo‘lgan qiziqish kuchaydi. Ilmiy inqilob jarayonida kuzatish, tajriba, matematik ifoda va dalillarni qayta tekshirish ilmiy bilishning muhim shartlariga aylandi. Frensis Bekon induktiv yondashuvni rivojlantirib, xulosaga shoshilmasdan, kuzatuvlarni tizimli yig‘ish va xatolarga olib keluvchi fikrlash odatlaridan ehtiyot bo‘lishni ta’kidladi. Rene Dekart esa metodik shubha va deduktiv fikrlash orqali bilimning ishonchli asoslarini izlashga intildi.

Ushbu ikki yo‘nalish turizm tadqiqotlarida ham muhim. Induktiv yondashuv sayyohlar bilan suhbatlar, kuzatishlar va dala kundaliklaridan kelib chiqib, yangi tushunchalar ishlab chiqishga imkon beradi. Deduktiv yondashuv esa mavjud nazariya asosida gipoteza shakllantirib, masalan, xizmat sifati turistlar qoniqishiga ta’sir qiladi degan farazni so‘rov va statistik tahlil orqali tekshiradi. Shunday qilib, turizmshunoslikda nazariyadan ma’lumotga va ma’lumotdan nazariyaga yo‘nalgan harakatlar birgalikda qo‘llanilishi mumkin.

XIX–XX asrlar: pozitivizm, tanqidiy ratsionalizm va paradigmal yondashuv:

XIX asrda pozitivizm kuzatish mumkin bo‘lgan faktlar, qonuniyatlar va o‘lchashga asoslangan bilimni ilmiylikning muhim mezoni sifatida ilgari surdi. Bu yondashuv ijtimoiy hodisalarni ham miqdoriy ko‘rsatkichlar orqali tahlil qilishga turtki berdi. Turizm sohasida tashriflar soni, turistlarning o‘rtacha xarajati, tunash davomiyligi, bandlik darajasi, mavsumiylik va turizmning yalpi ichki mahsulotga qo‘shgan hissasi kabi ko‘rsatkichlar aynan shunday yondashuvning amaliy ifodasidir. BMT Statistika bo‘limi

tomonidan ishlab chiqilgan Xalqaro turizm statistikasi tavsiyalari turizm ma’lumotlarini yig‘ish va mamlakatlararo taqqoslash uchun umumiy metodologik asos yaratadi.

Turistning safar motivi, mahalliy aholining turizmga munosabati, madaniy merosning ramziy qiymati yoki sayohat tajribasining subyektiv mazmuni sonlar bilan to‘liq ifodalanmaydi. XX asrda pozitivistik yondashuvga javoban interpretativ va fenomenologik qarashlar rivojlandi. Ular ijtimoiy voqelikni ishtirokchilar unga beradigan ma’nolar orqali tushunishga urg‘u beradi.

Karl Popperning tanqidiy ratsionalizmi ilmiy nazariyani tasdiqlovchi dalillarni yig‘ish bilangina cheklanmasdan, uni rad etishi mumkin bo‘lgan sinovlarga ham ochiq tutishni talab qiladi. Tomas Kun esa fan taraqqiyotida paradigmalarning o‘rni, ilmiy hamjamiyatning umumiy me’yorlari va ayrim davrlarda yuz beradigan konseptual o‘zgarishlarni ko‘rsatdi. Turizm tadqiqotida bu qarashlar tadqiqotchidan o‘z nazariy taxminlarini ochiq bayon etish, muqobil izohlarni ko‘rib chiqish va dalillarga mos kelmagan xulosalarni qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi.

Zamonaviy bosqich: metodologik pluralizm va fanlararo yondashuv: Zamonaviy ilmiy tafakkurda yagona metodga tayanishdan ko‘ra muammoli vaziyat holatlardan kelib chiqqan holda turli nazaraiy metodlar bilan ishlash tartibiga o‘tilmoqda. Turizm kabi murakkab sohalarda miqdoriy, sifat va aralash metodlardan foydalanish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Khoo-Lattimore, Mura va Yung tomonidan turizm jurnallarida 2005–2016-yillarda chop etilgan aralash metodli tadqiqotlar bo‘yicha o‘tkazilgan tizimli sharh ko‘plab ishlarda epistemologik, ontologik va aksiologik pozitsiyalar yetarlicha ochiq ko‘rsatilmaganini aniqlagan. Bu holat metod tanlashni falsafiy asoslash zarurligini ko‘rsatadi.

Turizm turli fanlar kesishmasi natijasida o‘rganiladigan sohalardan biridir. Masalan, tarixiy shaharlarga turistik tashrif buyirish natijasida joyning turistik meroslarini tahlil qilishda tarix va arxeologiya meros obyektining kelib chiqishini, geografiya hududiy joylashuv va oqimlarni, iqtisodiyot xarajat va daromadlarni, sotsiologiya mahalliy aholi munosabatini, ekologiya esa tashriflarning tabiiy muhitga ta’sirini o‘rganadi. Fanlararo hamkorlik yangi tushuncha va metodlar ishlab chiqishga imkon bersa-da, turli fanlarning terminlari va sifat mezonlarini muvofiqlashtirish talab etiladi.

Muhokama

Tarixiy-falsafiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, turizm tadqiqotlarida ilmiy metodni tanlash o‘rganilayotgan muammoning mazmuniga bog‘liq. Turizmni faqat iqtisodiy hodisa sifatida baholash uning ijtimoiy, madaniy va ekologik jihatlarini chetda qoldiradi. Shu bois tadqiqotchi turizmni o‘zaro bog‘liq jarayonlar majmui sifatida ko‘rib chiqishi zarur.

Metodologik tanlov uch jihatga tayanadi: ontologik yondashuv turizm qanday voqelik ekanini, epistemologik yondashuv u haqidagi bilim qanday olinishi va aksiologik yondashuv qaysi qadriyatlar hisobga olinishini belgilaydi. Masalan, turistlar qoniqishini o‘rganishda so‘rovnoma va statistik tahlil, ziyoratchilar tajribasini anglashda esa intervyu hamda kuzatish samarali. Murakkab savollarda bu usullarni uyg‘unlashtirish maqsadga muvofiq.

Shu asosda turizm tadqiqotlari uchun besh bosqichli integrativ model taklif etiladi: muammoni aniqlashtirish; nazariy paradigma va savolni moslashtirish; ma’lumot hamda metodlarni tanlash; turli manbalar natijalarini taqqoslash va birlashtirish; xulosalarni tanqidiy hamda etik baholash. Bunda metodlar shunchaki jamlanmaydi, balki har biri alohida tadqiqot savoliga javob berishi lozim.

O‘zbekiston sharoitida ushbu model tarixiy shaharlar, ziyorat maskanlari va ekoturizmni o‘rganishda qo‘llanishi mumkin. Statistik ma’lumotlar tashriflar va iqtisodiy ta’sirni ko‘rsatsa, suhbatlar mahalliy aholining munosabati va madaniy merosga qarashlarini ochib beradi. Tadqiqot ishonchliligi uchun tanlanma, ma’lumot cheklovlari, ishtirokchilarning roziligi, maxfiylik va madaniy qadriyatlarga hurmat ta’minlanishi zarur.

Xulosa

Tarixiy tahlil falsafa va fanga munosabat turli davrlarda o‘zgarib borganini ko‘rsatdi: antik davrda mantiq va kuzatish, o‘rta asrlarda bilimlarni tizimlashtirish, Yangi davrda tajriba va deduksiya, XIX–XX asrlarda esa pozitivizm, interpretativ va tanqidiy yondashuvlar rivojlandi. Bugungi kunda metodologik pluralizm va fanlararo hamkorlik ustuvor.

Turizm tadqiqotlarida metod muammoning tabiatiga mos tanlanishi kerak. Iqtisodiy ko‘rsatkichlar madaniy, ijtimoiy va ekologik mazmunni to‘liq ochmaydi; subyektiv

tajriba esa umumiy tendensiyalarni aniqlash uchun yetarli emas. Shu bois miqdoriy, sifat va tanqidiy-tizimli tahlil bir-birini to‘ldirishi lozim.

Taklif etilgan integrativ model muammoni aniqlashtirish, paradigma va savolni moslashtirish, metodlarni tanlash, natijalarni integratsiyalash hamda etik-refleksiv baholash bosqichlarini qamrab oladi. U magistrlik tadqiqotlarida dizaynni asoslash va xulosalar ishonchliligini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bird, A. (2026). Scientific Method. In E. N. Zalta & U. Nodelman (Eds.), The Stanford Encyclopedia of Philosophy. https://plato.stanford.edu/entries/scientific-method/ (murojaat sanasi: 11.11.2026).

2. Okumus, F., van Niekerk, M., Koseoglu, M. A., & Bilgihan, A. (2018). Interdisciplinary research in tourism. Tourism Management, 69, 540–549. https://doi.org/10.1016/j.tourman.2018.05.016.

3. Wen, J., Kozak, M., Aston, J., & Wang, W. (2025). Introduction: Interdisciplinary research in tourism: An overview. In Interdisciplinary Research and Tourism (pp. 1–7). Routledge. https://doi.org/10.4324/9781003490296-1.

4. Khoo-Lattimore, C., Mura, P., & Yung, R. (2019). The time has come: A systematic literature review of mixed methods research in tourism. Current Issues in Tourism, 22(13), 1531–1550. https://doi.org/10.1080/13683500.2017.1406900.

5. United Nations Statistics Division. (2008). International Recommendations for Tourism Statistics 2008. United Nations. https://unstats.un.org/unsd/tourism/methodology.asp.

6. Popper, K. (2002 [1959]). The Logic of Scientific Discovery. Routledge.

7. Kuhn, T. S. (2012 [1962]). The Structure of Scientific Revolutions (4th ed.). University of Chicago Press.

8. Creswell, J. W., & Plano Clark, V. L. (2018). Designing and Conducting Mixed Methods Research (3rd ed.). SAGE Publications.

9. Phillimore, J., & Goodson, L. (Eds.). (2004). Qualitative Research in Tourism: Ontologies, Epistemologies and Methodologies. Routledge.

10. Tribe, J. (1997). The indiscipline of tourism. Annals of Tourism Research, 24(3), 638–657. https://doi.org/10.1016/S0160-7383(97)00020-0.